

O‘ZBEKISTONDA XALQARO TURISTIK OQIM RIVOJLANISHIDA ICHKI TURIZMNING AHAMIYATI

Farxodova Shohnova Umidbek qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13902570>

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekistonda milliy turizmni rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyatini xorijiy tajribalardan foydalangan holda ko‘rsatib beradi. Ichki turistlar oqimi o‘shishiga sabab bo‘luvchi bir qancha omillar statistik hisobotlar va jadvallar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: milliy turizm, turistik oqim, mikro va makroiqtisodiyot, moliyaviy omil, inqiroz, ishsizlik, ichki turistik oqim, real daromad.

Аннотация. В данной статье показана экономическая значимость развития национального туризма в Узбекистане с использованием зарубежного опыта. На основе статистических отчетов и таблиц выделен ряд факторов, вызывающих увеличение потока внутренних туристов.

Ключевые слова: национальный туризм, турпоток, микро- и макроэкономика, финансовый фактор, кризис, безработица, внутренний турпоток, реальные доходы.

Abstract. This article shows the economic importance of the development of national tourism in Uzbekistan using foreign experiences. A number of factors that cause the increase in the flow of domestic tourists are highlighted on the basis of statistical reports and tables.

Keywords: national tourism, tourist flow, micro and macroeconomics, financial factor, crisis, unemployment, domestic tourist flow, real income.

KIRISH

Turistlarning yetkazib beruvchi mamlakatdan qabul qiluvchi mamlakat hududidagi belgilangan manzilga borishi va shu yo‘nalish bo‘yicha orqaga harakatlanishi turistik oqim sifatida tushuniladi. U sayohatning yo‘nalishlari va dinamikasini, shu jumladan turistik harakatlarning hajmi, marshruti va xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Turizm oqimini turistlar soni, ularning kelib chiqishi va boradigan joylari, foydalanadigan transport turlari, sayohatlarning davomiyligi va boshqa tegishli omillar bilan o‘lchash mumkin.

Milliy turizm rivojlanishi demografik, tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, diniy va siyosiy-huquqiy omillar harakatiga ham jiddiy ta’sir o‘tkazadi. Turizm – xizmat ko‘rsatish sohalaridan biri va mazkur soha jamiyatda barcha insonlar manfaatlariga xizmat qilishi bilan birgalikda mikro va makroiqtisodiyot manbayi hisoblanadi. Turizmda ko‘p sonli turistik oqimni jalb qilish ko‘p bosqichli harakatlar strategiyasini talab qiladi. Masalan, turistik bozorni segmentlash to‘g‘ri auditoriya tanlash, turizm xarajatlarning samarali taqsimlanishi, foydali marketing rejalarni ishlab chiqish, mahalliy va xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga yordam beradi. Bu o‘z navbatida turistik oqimning o‘shishi va mamlakatda qolish uzviyligini oshirishga imkon yaratadi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Shanshan Vu, Lusang Vang va Haiyang Liu ta’kidlashicha, “Turizm rivojlanishi kelayotgan turistik oqimning soniga qarab aniqlanadi, shunday ekan, turistik oqimni o‘rganish uning ishlash mexanizmini yoritishga yordam beradi” [1].


N.T. Tuxliyevning fikrlariga ko‘ra, “Turizm bevosita va bilvosita iqtisodiyotning 32 ta tarmog‘i rivojlanishiga ta’sir o‘tkazadi. Iqtisodiyotda bundan kuchliroq multiplikator samarasini beradigan soha yo‘q desa ham bo‘ladi” [2].

Mirzayev M. va Aliyeva M. ning tavsifiga asoslanib, “Turizmni rivojlantirishga ajratilgan mablag‘lar birinchi qarashda astronomik raqamlarda bo‘lib ko‘rinishi mumkin, lekin amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bu xarajatlar o‘zlarini oqlaydi va davlatga turizmdan undan ham katta hajmdagi daromadlarni keltiradi” [3].

TADQIQOT NATIJALARI

Iqtisodiyoti turizmga sezilarli darajada bog‘liq bo‘lgan mamlakatlar uchun turistik oqimning soni har qanday ko‘rinishda qisqarishi inqiroz va ishsizlik, byudjetning muhim tarkibiy qismlarini yo‘qotish bilan tahdid qiladi.

1 - rasm. Turizmning 2000-2023 yillar oralig‘idagi o‘sish bosqichlari.




Manba: BTT (UN Tourism) ning 2024-yil yanvar oyidagi barometridan olingan.

Rasmda turizmning jahondagi so‘nggi 23 yillik tendensiyalari tasvirlangan. 2003-yilda dunyo bo‘ylab SARS virusi tarqalishi tufayli turizmga sayohatlar va turizmdan tushadigan daromad 0,3% ga kamaygan edi. Xuddi shunday tushish 2009-yilda global iqtisodiy inqiroz sababli yuzaga keldi va soha bunda 4% zarar ko‘rdi. O‘n yil mobaynida turizm sohasi dunyodagi eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri sifatida raqamlarda o‘sish ko‘rsatayotgan bir paytda, 2020-yilda dunyo aholisi COVID-19 virusi tarqalishi oqibatida sayohat cheklovlariga duch keldi. Oxirgi 20 yil ichida turizm sanoatida eng katta zarar aynan pandemiya holatiga to‘g‘ri keldi, ya‘ni xalqaro turizmga tashriflar soni 72% ga pasaydi.

Turizm sanoatida so‘nggi bir necha o‘n yilliklarda jahon iqtisodiyotining o‘ta kuchli globallashuv va raqamlashtirish sharoitida mamlakatlar milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, yangi bosqichlarga ko‘tarish va raqobatbardosh turizm muhitini mustahkamlash kabi vazifalarga katta ahamiyat berishmoqda. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining katta ulushini turizm sanoatidan keladigan daromadlar tashkil qiladi. Shuning uchun, bunday mamlakatlarda turizmni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan va turistlar oqimini oshirish maqsadida jahon miqyosida amaliy ishlar olib borilmoqda.

Butunjahon Turizm Tashkiloti bergan ma'lumotlarga ko'ra turistik destinatsiyalarda xalqaro turistlar sonining oshishida mamlakatdagi ichki turistlar oqimi muhim ahamiyat kasb etadi. Statistika ma'lumotlariga qaraganda, turizm sohasida yetakchilik qiladigan Yevropa davlatlariga tashrif buyurgan xalqaro sayyohlar sonidan ichki turistlar oqimining ulushi nisbatan ancha katta.


2 – rasm. Jahonning top 10 destinatsiyalariga xalqaro turistlar tashrifi, 2023 yil.



Manba: World Tourism Barometr – Volume – 21 Issue 2 – January 2023 ma'lumotlari asosida tuzildi.

Statistika ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, jahonda sayyohlar tashrifi bo'yicha Fransiya yetakchi mamlakat hisoblanib, 2023-yilda 48,4 mln sayyoh ushbu turistik hududga tashrif buyurgan. Fransiya hukumati bergan ma'lumotlarga ko'ra, sayyohlar oqimining deyarli teng yarmini ichki turistlar tashkil qilgan. Turizm eksport hajmi bo'yicha AQSh turizmdan eng katta foyda oladigan mamlakatlar orasida birinchi o'rinni egallaydi. Yuqorida qayd etilgan o'nta mamlakatning faqat ikkitasigina sharq mamlakati bo'lib, asosan, sayyohlar oqimi Yevropa mamlakatlarida yuqori ko'rsatkichlar bermoqda.

3 – rasm. Turistik oqimning rivojlanish sabablari.



Turistlar oqimi yuqoriligi jihatidan yetakchi davlatlarda aholi daromadi ham shunga muvofiq ravishda yuqori bo'lib, insonlar yetarlicha ehtiyojlarini ta'minlaydi. Bu o'z navbatida aholining turmush tarzi farovonlashuviga, yetarlicha to'yib ovqatlanishga, shaxsiy uy va mashina kabi mol-mulkka ega bo'lishga olib keladi. Demak, davlatlar ichki turizmni rivojlantirishi uchun bevosita xalqaro mehnat taqsimotiga va tez sur'atlarda o'tish jarayonlarini boshlashi va oylik daromadlarini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishlari zarur.

MUHOKAMA

Turizm ko'pgina mamlakatlar iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u mamlakatda mahalliy aholi bandligini, mehmonxonalar faoliyatini yuritish, restoran va shu kabi ovqatlanish shahobchalari, ommaviy tadbirlarni tashkil etish hamda chet el valyutasining kelib tushishini ta'minlaydi. Turizm xizmat ko'rsatish sohalaridan biri bo'lib, ulkan ahamiyat va qator xususiyatlarga ega. Turizmning ichki iqtisodiy tabiati shuni taqozo etadiki, turist tashrif buyurgan mamlakatda o'z mablag'ini, albatta sarflab ketadi. Turizm mahalliy turistik resurslar ekspluatatsiyasiga asoslanadi va shuning evaziga qabul qiluvchi mintaqa yoki mamlakat foyda oladi.

Mamlakatda ichki turistik oqimning rivojlanishiga ta'sir qiladigan omillarni ko'rib chiqishdan oldin ichki sayyohlar segmentatsiyasini o'rganish lozim. Ichki turistlarning mamlakat bo'ylab sayohat davomiyligi, ichki sayyohlar uchun ro'yxatning yuqori o'rinlarida turgan mamlakatning mashhur joylari va demografik jihatlarini so'rovnoma o'tkazish orqali aniqlash mumkin. Milliy turizm bozori segmentatsiyasini o'rganish turizm amaliyotlarini maqsadli va samarali boshqarishga keng imkoniyat beradi. Bundan tashqari, "Har kim sayohat qilishga haqli" shiori ostida doimiy va mavsumiy chegirmalar haftaligini tashkillashtirish, shuningdek, mamlakat bo'ylab uyushtirilgan sayohatlarda ayollar, bolalar va imkoniyati cheklangan aholi qatlamlarining turizm amaliyotlarini rag'batlantirish ichki turizmning rivojlanishiga keng yo'l ochadi. Ayniqsa, yosh bolalarning turizmdagi ishtiroki alohida dolzarb masala. Ichki turizm bolalarga o'z mamlakatlarini o'rganish, turli xil madaniyatlarini bilish va tabiiy go'zalliklarini qadrlashga

yordam beradi. Mahalliy tadbirlarda qatnashish, tarixiy joylarni ziyorat qilish yoki mintaqaviy oshxonani taomlaridan tatib ko‘rish orqali bolalar vataniga chuqurroq bog‘lanadi. Bu esa ularning vatanparvarligi va madaniy o‘zlik tuyg‘usini rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin. Bolalarga uzoq yillar eslab yurishi mumkin bo‘lgan davomiy xotiralar kelgusida nostalgiya turizmga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Turizm, ekskursiya ruhida tarbiyalangan yoshlar sayohat qilishga odatlanadi va bu turizm aholidagi kelajakdagi davomiy ishtiroki ta‘minlaydi.

Milliy turizmning rivojlanishiga bir qancha o‘ziga xos xususiyatlar ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Jumladan, turizmning keng doirada va to‘la imkoniyatlarni ochib berishga katta turtki texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog‘liq. Texnologiya sohasidagi yutuqlar turizm sanoatiga taraqqiyotning yangi bosqichi darajasida kirib kelishi turar joy va transportni bron qilishdan tortib virtual sayohatlar va mobil ilovalar orqali sayohat tajribasini yaxshilashga o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmadi. Turizmning rivojlanish bosqichlariga ahamiyat qaratadigan bo‘lsak, zamonaviy turizm ommalashishiga sabab bo‘lgan transport, texnologiya va internet kabi omillar qatorida infratuzilmani rivojlantirish ham turadi.

4-jadval. Milliy turizmning rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi omillar.

Ijobiy xususiyati	Milliy turizmning rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi omillar	Salbiy xususiyati
Turizm turli xil kelib chiqishga mansub odamlar o‘rtasida madaniy almashinuv, madaniyatlararo aloqa va bag‘rikenglikni rivojlantiradi, madaniyatlar va jamiyatlar o‘rtasida tinchlik, muloqot va o‘zaro hurmatni shakllantiradi.	Xalqaro munosabatlar	Siyosiy beqarorlik, davlat to‘ntarishlari, tartibsizliklar, norozilik namoyishlari va diplomatik nizolar turizm oqimini buzishi, investorlarning ishonchini susaytirishi va xorijiy hukumatlarning sayohatga oid cheklovlar e‘lon qilishiga olib keladi.
Turistik daromad, valyuta tushumlari va ish bilan ta‘minlash imkoniyatlarini keltirib chiqaradi, iqtisodiy o‘sishga, investitsiya kiritish va biznesga hissa qo‘shadi.	Iqtisodiy omillar	Iqtisodiy tanazullar, valyutaning qotib qolishi, inflyatsiya va moliyaviy inqirozlar turizmga iste‘mol xarajatlarini kamaytirishi mumkin.
Turizm mahalliy tadbirkorlik, ish o‘rinlari yaratish, malaka oshirish va madaniyatni saqlash imkoniyatlarini taqdim etish orqali aholiga turizmga bevosita qatnashish va undan foyda olish imkonini berishi mumkin.	Ijtimoiy omil	Turistlar va mahalliy aholi o‘rtasidagi madaniy tushunmovchiliklar, janjal kamsitishlar va nizolar jamiyat munosabatlarini keskinlashtirishi mumkin.

Transport tarmoqlari, turar joy binolari, ijtimoiy va turistik qulayliklar, diqqatga sazovor joylarga investitsiyalar qulayliklarni oshiradi, turizmning o'sishi va rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.	Infratuzilmani rivojlantirish omili	Infratuzilmani rivojlantirish oqibatida mamlakat hududida qurilishlar ortadi va ekologiyaga zarar yetkazishi, ifloslanishni keltirib chiqarishi mumkin va shu bilan birga, tarixiy binolarga zarar yetishi ehtimoli mavjud.
---	-------------------------------------	---

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mamlakatda ichki turizm rivojlanishi xalqaro sayyohlar tashrifi soniga ham bevosita va bilvosita ta'sir qiladi. Mamlakat hududida mahalliy aholi va ichki sayyohlar uchun yaratilgan shart-sharoit va imkoniyatlar chet ellik turistlarning qiziqishiga sabab bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilgan xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda qayd etish kerakki, milliy turizmning rivojlanishi mamlakatimizda xalqaro turistlar sonini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Milliy turizmning rivojlanishi xalqaro turistik oqimning ko'payishiga ta'sir qilishi, turizm daromadlarini oshishi, shu bilan birga, aholining ish bilan bandlik darajasi ko'tarilishiga asosiy turtki bo'lishini inobatga olib, ichki turizmni rivojlantirish maqsadida quyidagi chora-tadirlar amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- Ichki turizmni mahalliy aholi o'rtasida targ'ib qilishga yo'naltirilgan mavsumiy infoturlar tashkil qilish;
- Turistik destinatsiyalarda xizmat ko'rsatish sifatini oshirish;
- Ekologik barqarorlikni saqlash maqsadida innovatsion va operatsion texnika va texnologiyalardan foydalanish;
- Yosh avlodni tarixiy-madaniy obidalarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish;
- Ichki turizmda ayollar va imkoniyati cheklangan aholi qatlamining ishtiroki ta'minlash va rag'batlantirish.

REFERENCES

1. Wu S., Wang L., Liu H. Study on Tourism Flow Network Patterns on May Day Holiday. – Switzerland.: Sustainability. 18-yanvar, - 2021. 23 p. <https://doi.org/10.3390/su13020947> [1]
2. Tuxliyev N., Jiyanov O'. Turizmning rivojlanish milliy modellari. Darslik. – T.: “Ilm-Ziyo-Zakovat” nashriyoti, 2020. 3 b. [2]
3. Mirzayev M.A., Aliyeva M.T. Turizm asoslari: O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2011. 12 b. [3]
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi /https://lex.uz/docs/6445145
5. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi “Turizm to'g'risida”gi 549-sonli Qonuni /https://lex.uz/docs/4428097
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-5611-sonli Farmoni. 2019-yil, 5-yanvar. <https://lex.uz/docs/-4143188?ONDATE=06.01.2019>
7. 2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-sonli Farmoniga ilova. <https://lex.uz/docs/-4143188?ONDATE=06.01.2019>

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5781-son Farmoni. 2019-yil, 13-avgust. <https://lex.uz/docs/-4474527>
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-fevraldagi “Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-135-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-5868619>
11. Mirzayev M.A., Aliyeva M.T. Turizm asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “START-TRACK PRINT” nashriyoti, 2011. – 288 b.
12. Tuxliyev I.S., R. Hayitboyev, G.R. Tursunova, Safarov B.Sh. Turizm asoslari. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya. 2014. – 332 b.
13. Писаревского Е.Л. Основы туризма: учебник / коллектив авторов; под ред. Е.Л. Писаревского. – М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. – 384 с.
14. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
15. www.stat.uz – O‘zbekiston respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.
16. www.e-unwto.org – Butunjahon Turizm Tashkiloti elektron hujjatlari bazasi.
17. www.unwto.org – Butunjahon Turizm Tashkiloti rasmiy veb-sayti.